

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!



2024 йил
11 июль
№ 28 (969)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган



ХОРИЖИЙ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ: ДЎСТЛИК ВА ҲАМЖИҲАТЛИК ИСТИҚБОЛЛАРИ

Хитой Халқ Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазири Ван Сянси бошчилигидаги делегация мамлакатимизга ташриф буюрди. Самарқанд шаҳрида икки вазирлик раҳбарлари ўртасида бўлиб ўтган музокара-лар давомида ҳамкорликни мустақамлаш истиқболлари юзасидан фикр алмашилди Хитой томони тобора юқори суръат билан ривожланаётган икки томонлама муносабатларнинг бугунги даражасини юксак баҳолаётгани қайд этилди. Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган сиёсий янгиланишлар ва ижтимоий-иқтисодий ислохотлар тўлиқ қўллаб-қувватланаётгани таъкидланди.

Мулоқот чоғида Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев сўнгги йилларда икки давлат қутқарув идоралари

ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик жадал ривожланиб бораётганини таъкидлади. Бу эса Ўзбекистон ва Хитой раҳбарлари ўртасидаги эришилган келишувлар ва яхши муносабатлар самараси эканлиги эътироф этилди.

Мазкур йиғилиш доирасида ҳар икки мамлакат ўртасида табиий офатлар хавфини камайтириш, фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш ва оқибатларини бартараф этиш соҳасида ҳамкорликдаги ҳаракатларни амалга ошириш масалалари муҳокама қилиниб, ҳамкорлик механизмларини мустақамлашни назарда тутувчи қатор ҳужжатлар тасдиқланди. Куннинг иккинчи ярмида Хитой делегацияси учун қадимий Самарқанднинг диққатга сазовор жойларига экскурсия ташкил этилди.

ҚИРҒИЗИСТОНГА ИНСОНПАРЛИК ЁРДАМИ



Ўзбекистон кучли сел тошқинларидан жабр кўрган Қирғизистон халқига инсонпарварлик ёрдами борди.

Шу муносабат билан Боткент вилоятидаги Қизил-Қия чегара назорат ўтиш пунктида Ўзбекистон Фавқулдда вазиятлар вазирининг биринчи ўринбосари Санжар Зупаров, мамлакатимизнинг ушбу давлатдаги бош консули Зафарбек Аҳмедов ва Қирғизистон расмийлари иштирокида инсонпарварлик ёрдамини топшириш маросими бўлиб ўтди. Инсонпарварлик ёрдами энг кўп зарар кўрган Ноокат тумани ҳокимлигига топширилди.

Ўз навбатида, Қирғизистон томони инсонпарварлик ёрдами учун миннатдорлик билдирди.

Маълумот ўрнида айтиб ўтамиз, 28 июнь куни Ўш ва Боткент вилоятларида кучли сув тошқинлари юзага келди. Ушбу табиий офат натижасида ўндан зиёд одамлар, жумладан, ёш болалар ҳалок бўлди ҳамда кўплаб аҳоли пунктлари зарар кўрди.

“Халқ сўзи” газетаси
(2024 йил 6 июль, 135-сон)



Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

ҒАЛАБА МУБОРАК!

Жорий йилнинг 5-6 июль кунлари ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ўртасида спортнинг “Jeet Kundo do” тури бўйича “IPA” камари учун Республика очиқ турнири ўтказилди.

Унда иштирок этган Андижон вилояти ФВБ ходими Сардорбек Абдурашидов 1-ўринни эгаллади. Бундай ғалабалар ўсиб келаётган ёшларни барча соҳалар қатори спорт бўйича ҳам маррани баланд олиб, доимо ғалаба сари интилиб яшашга ўргатади, соғлом турмуш тарзини ҳаётимиз қондасига айлантиришга хизмат қилади.

Шу муносабат билан С.Абдурашидовни мазкур ғалаба билан чин дилдан муборакбод этган ҳолда, келгуси мусобақаларда муваффақиятлар тилаб қоламиз.

НАВБАТДАГИ ТАНЛОВ

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси томонидан Халқаро Нордик университети ва IDC таълим маркази билан ҳамкорликда “Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори соврини” танлови ўтказилди.

Унда Миллий гвардия Қўриқлаш бош бошқармасига қарашли “Камалак” соғломлаштириш оромгоҳида дам олаётган 40 нафардан ортиқ 7-синф ўқувчилари математика фанидан беллашди.

Натижаларга кўра, Зиёвуддин Тошкентбоев 1-ўрин, Миркомил Зуфаров 2-ўрин ва Анна Наседкина 3-ўринни забт этди.

Тақдирлаш маросимида ҳамкор ташкилотлар вакиллари иштирок этиб, голиб ва совриндорларга эсдалик совғаларини топширишди.

А.МАТЯКУБОВ,
Чирчиқ ҳарбий прокурорининг
ўринбосари,
адлия полковниги.

ЎРГАНИШ

Тошкент вилояти туманларида тунги хизмат ҳолати юзасидан Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг ўринбосари — Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори Б.Кудратходжаев томонидан ўрганишлар олиб борилди.

Хусусан, Ички ишлар бошқармасида жамоат хавфсизлиги, ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олиш борасида амалга оширилаётган ишлар аҳволи ўрганилди.

Миллий гвардия қўриқлаш бўлимлари томонидан жамоат хавфсизлигини таъминлаш борасида амалга оширилаётган ишлар самарадорлигига эътибор қаратилди.

Ўрганишлар давомида тунги хизматга жалб қилинган шахсий таркибга ва масъулларга тегишли кўрсатмалар берилди.

Жараёнда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси, жиноятларнинг барвақт олдини олиш, маҳалла еттилигини бу борадаги фаолиятини самарали ташкил қилиш, қизил тоифадаги маҳаллалар бўйича чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш масалалари юзасидан фикр алмашилди.

Шу билан бирга, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида маҳалла еттилиги фаолияти ўрганилиб, осойишталикни таъминлаш борасида тавсиялар бериб ўтилди.

О.УМАРОВ,
Республика ҳарбий прокуратураси
бўлим ҳарбий прокурори, адлия
подполковниги.

ФАОЛИЯТ

Тошкент ҳарбий прокуратураси томонидан ҳарбий қисм ва муассасаларда мунтазам равишда ҳуқуқий тарғибот ва профилактика тадбирлари ўтказиб келинмоқда.

Шу каби тадбирлар Тошкент шаҳри қўриқлаш бошқармаси, Бектемир ва Яшнобод туманлари фавқулодда вазиятлар, мудофаа ишлари бўлимлари ва қатор ҳарбий қисмларда амалга оширилди.

Шунингдек, ҳарбий хизматчилар ва ходимларнинг яшаш ва хизмат шароитлари ўрганилиб, мутасаддиларга тегишли тавсиялар берилди.

Ш.НУРИДДИНОВ,
Тошкент ҳарбий прокурорининг
ёрдамчиси,
адлия майори.



МАНФААТЛАР ТЎҚНАШУВИ НИМА?

Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 5 июнь кунига “Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида”ги қонунининг мазмун-моҳиятини шахсий таркибга етказиш мақсадида Фарғона вилояти ФВБ томонидан тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Ана шундай тадбирлардан бири Қува туманида олиб борилди. Ўтказилган тарғибот тадбирида Фарғона ҳарбий

прокуратураси, Қува туман прокуратураси, адлия бўлими ходимлари, бошқарма масъул вакиллари ҳамда Қува тумани ҳарбий хизматчилари ва хизматчилари иштирок этдилар.

А.АРИПЖОНОВ,
Фарғона вилояти ФВБ
шахсий хавфсизлик
бўлими бош инспектори,
подполковник.

ЁШЛАР ИШТИРОКИДА

Жиззах ҳарбий прокуратураси томонидан ҳарбий қисмларнинг бирида муддатли ҳарбий хизматчилар иштирокида “Прокурор ва ёшлар” учрашуви ўтказилди.

Унда миллий армиямиз салоҳияти, замонавий имкониятлари, ҳарбий хизматчиларга яратилган имтиёзлар ҳақида маълумотлар берилди.

Яқунда шахсий қабул ташкил этилиб, ёш аскарларга қизиқтирган саволлар юзасидан ҳуқуқий тушунтиришлар берилди.

Ш.ХОДЖИЕВ,
Жиззах ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия
подполковниги.

ТЕРГОВ СУДЬЯСИ

Президентимизнинг шу йил 10 июндаги “Тезкор-қидирув ҳамда тергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони асосан инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтиришга қаратилган бир қатор чора-тадбирларни амалга ошириш белгиланди.

Биринчидан, жиноят ишлари бўйича судга қадар иш юритув даврида процессуал қарорларга санкция бериш масаласи жиноят ишлари бўйича туман, шаҳар судларида алоҳида судьялар — тергов судьялари томонидан кўриб чиқиш тартиби жорий этилади.

Жиноят ишлари бўйича туман, шаҳар судларига тергов судьяси лавозими киритилади.

Иккинчидан, жиноят ишлари бўйича судга қадар иш юритув даврида тергов судьяси томонидан процессуал қарорларга берилган санкциялар фақатгина апелляция инстанциясида Қорақалпоғистон Республикаси суди, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судлари, Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий суди томонидан яқка тартибда қайта кўриб чиқиши белгиланди.

Учинчидан, тергов судьяларига маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғри-

сидаги ишларни кўриб чиқиш ваколати берилади.

Тергов судьялари томонидан кўриб чиқиладиган маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юқори инстанцияларда қайта кўриб чиқишининг амалдаги тартиби сақлаб қолинади.

Фармонга мувофиқ, тергов судьясига жиноят материалларини, шу жумладан, санкциялар ва мажбурлов чораларини қўллаш масаласини кўриб чиқиш ваколати берилмоқда. Жумладан, қамоққа олиш ёки уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш билан боғлиқ илтимоснома;

қамоққа сақлаш ёки уй қамоғи муддатини узайтириш масалалари билан боғлиқ илтимоснома;

паспортнинг (ҳаракатланиш ҳужжатининг) амал қилишини тўхтатиб туриш тўғрисидаги илтимоснома;

мурдани эксгумация қилиш ҳақидаги илтимоснома; почта-телеграф жўнатмаларини хатлаш тўғрисидаги илтимоснома; тинтув ўтказиш ҳақидаги илтимоснома;

телефонлар ва бошқа телекоммуникация қурилмалари орқали олиб бориладиган сўзлашувларни эшитиб туриш, улар орқали узатиладиган ахборотни олиш ҳақидаги илтимоснома;

мол-мулкни хатлаш тўғриси-

УЧ АВЛОД УЧРАШУВИ

ФВБ Академиясида “Уч авлод учрашуви” бўлиб ўтди. Учрашувда Тошкент шаҳар бирлашган фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги полковник Мирзоҳид Мирзаитов ва ФВБ Академияси бошлиғи генерал-майор Равшан Ҳайдаров, шунингдек, биринчи батальон курсантлари қатнашдилар. Самимий кечган мулоқот курсантларда катта таассурот қолдирди.

ФВБ Академияси ахборот хизмати.

ТАРҒИБОТ

Наманган вилояти ФВБда “Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида”ги қонунининг мазмун-моҳияти тушунтирилди.



Унда бошқарма, Наманган шаҳар ва барча туманлар ҳарбий хизматчилари иштирок этди. Тадбирда шахсий таркибининг саволларига мазмунли жавоб берилди.

Тадбир сўнгидан бошқарма ҳарбий хизматчиларнинг хизмат жараёнидаги одобахлоқ, коррупция жиноятларининг олдини олиш мавзусидаги билимларини синаш мақсадида тест сновлари ташкил қилинди.

А.ҲАМИДОВ,
Наманган вилояти ФВБ ШХБ бошлиғи,
подполковник.

даги илтимоснома ҳақида сўз бермоқда.

Тергов судьясига қуйидаги жиноят материалларини, шу жумладан, айбланувчини лавозимидан четлаштириш тўғрисидаги илтимоснома;

шахсни тиббий муассасага жойлаштириш ҳақидаги илтимоснома;

айбланувчининг тиббий муассасада бўлиш муддатини узайтириш тўғрисидаги илтимосномаси;

ушлаб туриш муддатини қирқ саккиз соатга қадар узайтириш тўғрисидаги илтимоснома бўйича мажбурлов чораларини қўллаш масаласини кўриб чиқиш ваколати берилади.

Шунингдек, прокурорнинг гувоҳ ва жабрланувчининг (фуқаровий даъвогарнинг) кўрсатувларини олдиндан мустақамлаш тўғрисидаги илтимосномасини кўриб чиқиш ваколатига ҳам эга бўлади.

Тергов судьяси қонунчиликда белгиланган тартибда ўзига юклатилган вазифаларни адолатли ва холисона бажариши шарт. Қонун устуворлигини, ижтимоий адолатни, фуқаролар тинчлиги ва тотувлигини таъминлашга масъулдир. Фуқаролар ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатларини суд йўли билан самарали ҳимоя қилади.

Р.РАҲМОНОВ,
Жиноят ишлари бўйича
Миробод туман судининг
судьяси.



Olmazor tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan 52-DMTTda profilaktik uchrashuv o'tkazildi. Tadbir davomida bolajonlarga favqulodda vaziyat, xususan, zilzilalar vaqtida qanday tezkor choralar ko'rish, bunday vaqtda odam sarosimaga tushmasdan, o'zini o'zi boshqara olishi, darhol xavfsiz joyga o'tishi kerakligi tushuntirildi.

UCHRASHUV

Shu bilan birga, yong'in xavfsizligiga rioya etish, is gazidan zaharlanish, ovqatdan zaharlanish va qutirishni oldini olish borasida qimmatli fikrlar bildirildi.

N.HATAMOV,
Olmazor tumani FV bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.

JANGOVAR SHAYLIK

"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasida "Yig'in" signali e'lon qilinish, shaxsiy tarkibning jangovar shayligi tekshirildi.

Bundan ko'zlangan maqsad qutqaruvchilarda o'zini-o'zi boshqarish, xizmat burchini o'tashdagi shaxsiy javobgarligini oshirish, beparvolik va loqaydlik illatlariga barham berishdan iborat.

SH.ABDULLAYEV,
"Qamchiq" MQYQB boshlig'ining
birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i
v.v.b. podpolkovnik.

SEMINAR

Davlatobod tumani FV bo'limi tomonidan tuman hududidagi sog'liqni saqlash muassasalarida favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish va ularning oqibatlarini kamaytirishga bag'ishlangan seminar o'tkazildi.

Tadbirida xodimlarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash hamda sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilishga ruhiy tayyorgarlik, ruhan chidamlilikni shakllantirish yoki qo'ygan vazifani bajarish, ishchi va xodimlarning favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish malakasiga ega bo'lishiga erishish, jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish kabi vazifalar o'rgatildi.

Shu bilan bir qatorda, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, insonlar halok bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun amal qilishi lozim bo'lgan xavfsizlik qoidalari to'g'risida tushunchalar berildi.

S. RAHIMOV,
Davlatobod tuman FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, podpolkovnik.

EHTIYOTKORLIK YAXSHI

Namangan shahar "Sanoat" MFYda yashagan 2008-yilda tug'ilgan bola Namangan shahar "Oltitosh" MFY hududidan oqib o'tuvchi Shimoliy Farg'ona kanaliga qo'l yuvish uchun tushib, ehtiyotsizligi oqibatida oqib ketgan. Namangan viloyati FVB yong'in-qutqaruv otryadi suvda qidiruv-qutqaruv guruhi qutqaruvchilari kanalni uzunligi bo'ylab suv ostida va Namangan shahar, Davlatobod, To'raqo'rg'on, Chust, Pop tumani FV bo'limlari yong'in-qutqaruvchilari tomonidan suv usti qidiruv ishlari olib borilib 8 kunda bola topildi.

Shu o'rinda fuqarolardan o'zlari va farzandlarining cho'milish taqiqlangan joylarda cho'milmasliklarini so'rab qolgan bo'lardik.

Q. SATTAROV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

RUHIY TAYYORGARLIK



Noqulay muhitlarda qutqaruv ishlarini olib borish bir muncha qiyinroq kechadi, o'tkazilgan o'quv mashg'uloti qutqaruvchilarning bu boradagi bilim-ko'nikmasini oshirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotda turli favqulodda vaziyatlarda paydo bo'lgan noqulay, nafas olishga yaroqsiz muhitlardagi qidiruv-qutqaruv ishlarida tezkorlik va jangovar shaylik sinovdan o'tkazildi.

Mashg'ulot so'nggida, yo'l

qo'yilgan xato va kamchiliklar muhokama qilindi.

N.NURMATOV,
Qashqadaryo viloyati FVB
Tezkor boshqaruv markazi
boshlig'i, podpolkovnik.

YOZ O'TMOQDA SOZ

NKMK AJ va "Navoiyuran" DK obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi va uning Navoiy sanoat maydonidagi bo'limi xodimlari tomonidan "Yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha "Dolzab 30 kun" doirasida 3-sonli avtokorxonada yong'in xavfsizligiga mas'ul xodimlar va ishchi-xizmatchilar bilan davra suhbat o'tkazildi. Mazkur uchrashuvda korxonadagi barcha turdagi xizmat ko'rsatish, avtotransport vositalarining yong'inga qarshi holati ko'zdan kechirildi hamda favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligi bo'yicha tushunchalar berildi. Shundan so'ng "Bolajon" yozgi bolalar dam olish oromgohida NKMK AJ va "Navoiyuran" DK obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi va unga qarashli bo'limning mas'ul xodimlari, shuningdek, oromgohga bevosita javobgar xodimlar hamkorligida "Yosh-qutqaruvchi" musobaqasi tashkil etildi. Unda 100 nafardan ortiq bolajonlar ishtirok etishdi. Oromgohda 1 ta ko'ngilli yong'in o'chirish drujinasi tashkil etilgan.

5 ta yong'in o'chirish qalqonlari o'rnatilgan bo'lib, ular zaruriy birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlangan. 3 ta bolalar cho'milish hovuzlari, binolarda ichki yong'in o'chirish kranlari, xonalarda ko'rgazmali yong'in xavfsizligi burchaklari, 2 ta yong'in o'chirish gadrantlari mavjud. Dastlab ishchi-xizmatchilar va tarbiyalanuvchilar yotoqxonalarida shartli ravishda yong'in keltirib chiqarilib, insonlarni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish ishlari bo'yicha amaliy mashg'ulot olib borildi. "Qutqaruvchilar", "1050" va "Qalqon" jamoalariga bo'linib, yong'in o'chirish jangovar kiyimlarini kiyish, quyosh urganda va zaharli hashoratlar chaqqanda kabi qiziqarli va esda qoladigan amaliy mashg'ulotlarni bajarishdi. O'tkazilgan musobaqalarda namunali ishtirok etgan bolajonlar va g'olib ishtirokchilarga "NKMK jamg'armasi" va markaz boshlig'ining faxriy yorliq va sovg'alari topshirildi.

X.RAZZOQOV,
Markaz inspektori, kapitan.
M.HAYITOV,
Markaz kichik inspektori,
katta serjant.

"O'zbektelekom" AK "Telekommunikatsiya transport tarmog'i" filialida "Yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha dolzarb 30 kunlik" e'lon qilangan.

YONG'INLARNING OLDINI OLAYLIK!

Mazkur tadbirlar doirasida filialning majlislar zalida Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi institutining o'qituvchilari ishtirokida seminar bo'lib o'tdi.

Seminarda bugungi kunlarda yong'in bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari, yong'inlar monitoringi va tahlillari yetkazildi hamda yirik savdo komplekslarida sodir bo'lgan yong'inlarning kelib chiqish sabablari yoritilgan videorolik ko'rsatildi. Ishtirokchilarga yong'inlarda to'g'ri harakat qilish va oldini olish bo'yicha eslatma va plakatlar tarqatildi.

Seminar qizg'in tarzda savol-javob tariqasida o'tkazilib, ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob topishdi va yong'in xavfsizligi talablari, birlamchi yong'in o'chirish vositalarini qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab olishdi.

A.HAKIMOV,
zaxiradagi polkovnik.

YOSH QUTQARUVCHI

"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi tomonidan "O'zbekiston temir yo'llari" AJga qarashli "Temiryo'lchi oromgohidagi dam oluvchi bolalar o'rtasida "Yosh qutqaruvchi" musobaqasi o'tkazildi.

Unda "O'g'lonlar", "Bunyodkor", "Temiryo'lchi" "Drujba" jamoalari gaz niqobini to'g'ri va tezkor kiyish, birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish, qutqaruv asbob-anjomlaridan to'g'ri foydalanish kabi shartlar bo'yicha bahsga kirishishdi.

R.OTAMIRZAYEV,
"Qamchiq" MQYQB AQO
komandirining o'rinbosari,
guruh komandiri, leytenant.



OROMGOHLARDA

Zomin tuman FV bo'limi xodimlari tomonidan "Istiqlol", "Olmaliq" bolalar oromgohida profilaktik tadbirlar amalga oshirildi.

Favqulodda vaziyatlar, yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish hamda is gazidan zaharlanishning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, yong'in joyidan fuqarolarni tez va samararli evakuatsiya qilish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foyalanish usullari, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibi, zilzilalar vaqtida tezkor choralar ko'rish, sarosimaga tushmay o'zini-o'zi boshqara olish xususida fikr yuritildi.

S.XOLMURODOV,
Zomin tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, kapitan.
J.ABDUFATTAXOV,
bo'lim P va NB katta inspektori,
katta leytenant.

Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasida "Favqulodda vaziyatlar va yong'inlar sodir bo'lganda obyekt rahbariyati, qutqaruv tuzilmalari hamda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida 4 bosqichdan iborat maxsus-taktik o'quv mashqi bo'lib o'tdi.

"DOLZARB 30 KUN"



Unda obyekt rahbarlar tarkibi va fuqaro muhofazasi tuzilmalari shaxsiy tarkibiga xabar berish, saf ko'rigi o'tkazish orqali ularni yig'ish, zarur asbob-anjomlar bilan ta'minlanganlik darajasini ko'zdan kechirish tadbirlari bajarildi. Shartli favqulodda vaziyat hududidan jabrlanganlarni olib chiqish, ularga tibbiy yordam ko'rsatish amallari bajarilib, yong'in qisqa vaqt ichida bartaraf etildi.

U.JO'RAYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB "Sho'rtangaz-kimyoy majmuasi" MChJ OYXTTEB boshlig'i, podpolkovnik.



TUSHUNTIRISH

Obyektlarda yong'in xavfsizligini mustahkamlash, ularning rahbarlari bilan yong'in-taktik o'quv mashg'ulotlari, tushuntirish ishlarini tashkil etish samarali ishlar sirasiga kiradi. Chunki bunday tadbirlar davomida ishchi-xizmatchilar va aholining birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish va to'g'ri harakat qilish tartibi bo'yicha bilimlari oshiriladi. Ko'ngilsiz hodisalarning noxush oqibatlarini, shuningdek, mamlakatimizda mavsum davomida favqulodda vaziyatlarning oldi olinadi.


J.SHADMANOV, NKMK AJ VA Navoiyuran DK
YOXTTEMARKAZI inspektori, kapitan.
F.RO'ZIYEV,
smena boshlig'i, katta leytenant.

ZILZILA SABABLARI

Yer mantiyasidan to ustki qatlamigacha uzluksiz kimyoviy-fizikaviy jarayonlar kechadi. Har bir qatlam o'ziga xos moddalardan iborat. Yerning mantiya qatlamidagi kimyoviy jarayonlar ma'lum bir oqimni yuzaga keltiradi. Ana shu oqim yer plitalarining siljishiga turtki bo'ladi. Yer ostida million yillardan beri hosil bo'lgan yoriqlar – yer qobig'ining yoriqlari mavjud. Ularning chuqurlikdagi uzunligi kilometrlab, hatto mantiyagacha bo'lishi mumkin. Asosiy zilzilalar yirik yer qobig'i bo'laklarining bir-biriga to'qnashib, sinishi natijasida yuzaga keladi. Qaysi bo'lakning tarkibi mo'rt bo'lsa, u sinadi. Hatto sinish ovozi bizgacha ham yetib keladi. Sinish natijasi-

da katta miqdordagi energiya ajralib chiqadi va yer silkinishiga olib keladi. Hosil bo'lgan sinish zonasi zilzila o'chog'i hisoblanib, u ikki xildagi to'lqinni hosil qiladi. Bo'ylama va ko'ndalang to'lqin. Seysmologlar mana shu to'lqinlarni qayd qiladi. Bu ikki to'lqinning tezligi ikki xil ko'rinishda bo'ladi: tez va sekin. Shuning uchun ular kuzatuv punktiga ketma-ket yetib keladi. Xalq tilida uni "zilzilaning qaytishi" deyishadi. Aslida esa ikkala to'lqin ham zilzila o'chog'idan bir vaqtda tarqaladi. Bo'ylamaning tezligi pastroq, ko'ndalang to'lqinning tezligi esa yuqoriroq bo'ladi.

Zilzilalarning kelib chiqishiga yer ostidagi jarayonlardan tashqari



Quyosh, Oy hamda boshqa sayyoralarining tortishish kuchlari, koinotdagi o'zgarishlar ham ta'sir etadi. Bularning barchasini bir vaqtda kuzatib, o'rganishning imkoniyati yo'q. Shuning uchun ham fan-texnika qancha taraqqiy etsa-da, zilzila yuz berishini oldindan aytish haligacha muammo. Ba'zilar zilzila sabablari yer osti qazilma boyliklarini ko'p olinayotganidan deb bi-

ladi. Biroq bu asosiy omil emas. Ayni damda institutimiz laboratoriyalari tomonidan respublika bo'yicha qaysi hududlarda va qanday kuch bilan yer silkinishi sodir bo'lishi mumkinligini ko'rsatuvchi seysmogen zonalar va seysmik rayonlashtirish xaritalari yaratilgan.

B.MIRZAQOBILOV,
Samarqand viloyati
FVB HFX o'quv
markazi o'qituvchisi.

EHTIYOT BO'LING!

Botulizm kasalligini chaqiruvchi mikroblar ko'pincha sabzavotlar, qo'ziqorin, go'sht va baliq mahsulotlaridan uy sharoitida tayyorlangan, sifatsiz konserva mahsulotlarini iste'mol qilganda kasallik rivojlanishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlariga botulizm qo'zg'atuvchilari turli yo'llar bilan o'tadi. Masalan, go'shtga – hayvon so'yilayotganda, nimtalanayotganda, tushishi mumkin. Ba'zi holatlarda botulizm tuzlangan baliqlar orqali tarqalishi mumkin. Botulizm sporalari qulay sharoitga tushib qolganda ko'payib, o'zidan toksin ajratib chiqaradi. Sporalarni ko'payishi va o'zidan toksin ajratib chiqarishi uchun kislorodsiz muhit qulay hisoblanadi. Shu sababli, botulizm qo'zg'atuvchilari konservalangan mahsulotlarda, kolbasa va baliqlarda yaxshi rivojlanadi.

Sporalarning rivojlanishi uchun 22-37 daraja eng qulay hisoblanadi. Botulizm kasalligida markaziy asab tizimi zararlanishi belgilari kuzatiladi. Botulizm toksinlari bilan zararlangan oziq-ovqatlarni iste'mol qilgandan keyin 2-3 soat ichida, ba'zi hollarda esa bir sutkadan keyin, zaharlangan kishining oshqozoni behuzur bo'lib, qayt qiladi. Boshi qattiq og'riydi, og'iz bo'shlig'i va tomoq yo'llari quriydi. Botulinotoksinga asab tizimi, ayniqsa, kuchli sezgir bo'lganligi uchun, meningial simptomlar kuzatiladi.

J. NURIDDINOV,
ShKB OYXTTEB P va NB
inspektori, oddiy askar.
A. Rahmanov,
kichik inspektor, oddiy askar.



XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

Tumandagi barcha mahalla, idora va tashkilotlarda yong'in xavfsizligiga oid uchrashuvlar tashkillashtirilmoqda. Shuningdek, Alisher Navoiy, Shukur Burxonov, Chingeldi, Alisherobod, Iqtidor, Ulug'bek, Ijodkor, Beshkapa va Paskiyuz mahallalarida 20 ming m² dan ortiq yer maydoni quruq o'tdan tozalandi.

M.NOSIROV,
Mizo Ulug'bek tumani FV bo'limi
P va NB inspektori, katta serjant.

MUHIM MAVZU

Namangan shahar FV bo'limi va hamkor tashkilotlar tomonidan "Dashtbog'" MFY aholi xonadonlarida hamda ijtimoiy soha obyektlarida yong'in, chaqnash, is gazi va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan kerakli tushunchalar berildi.

I. MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.
I. NURALIYEV,
Namangan shahar FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.



FAOLLIK ZARUR

Toshkent tumani FV bo'limi tomonidan "Dolzarb 30 kun" tadbiri doirasida profilaktika tadbirlari yo'lga qo'yilib, asosiy e'tibor yoz mavsumida yong'inlar bilan bog'liq ko'ngilsiz holatlarning oldini olishga qaratilmoqda.

Tadbir davomida fuqarolardan yoz mavsumida yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, savdo-sotiq shoxobchalarida elektr tokidan foy-

dalanishda iste'molning me'yoridan ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik, yosh bolalar va yoshi katta keksalarni yolg'iz qoldirmaslik, tabiiy gaz va elektr energiyasida ishlovchi jihozlardan to'g'ri foydalanish borasida zarur tavsiyalar berilmoqda.

F.EGAMBERDIYEV,
Toshkent tumani FV bo'limi
bo'linma kichik inspektori,
oddiy askar.

ДОЛЗАРБ 30 КУН ТАДБИРИ

Бекобод тумани ФВ бўлими томонидан “Ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўйича” Долзарб 30 кун тадбири давомида аҳоли орасида ёнғин хавфсизлиги қоидалари тушунтирилмоқда.

Аҳоли кўп йиғиладиган масканларда корхона ва ташкилотларда учрашувлар ўтказилмоқда. Маҳаллаларда ёнғин ўчириш техникаларининг намойишлари ташкил этилмоқда. Фуқароларимиз тадбирларни кўнгилдагидек ўтказиш ҳамда ёнғин ҳолатларига йўл қўймаслик учун бор имкониятларини ишга солишяпти. Уйлаймизки, бундай саъй-ҳаракатлар ҳамжиҳатликда давом эттирилади ва кўзланган натижаларга эришилади.

З.ХУРРАМОВ,
Бекобод тумани ФВБ бошлигининг
ўринбосари-профилактика ва назорат
бўлинмаси бошлиғи, майор.

ДОВОНДАГИ ТАШВИҚОТ

“Қамчиқ” МҚЁҚБ ходимлари доvon ҳудудидаги жойлашган 33-бозорчада ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўйича савдо расталари, объектлардаги сотувчилар, фуқароларга профилактик тарғибот-ташвиқот ишларини олиб боришди.

Бундан ташқари, ёнғин-қутқарув отряди ходимлари томонидан савдо расталарида ёнғинга қарши ҳолатларини, бирламчи ёнғин ўчириш воситалари билан жиҳозланганлиги, сув ҳовузлари мавжудлиги ва уларга олиб борадиган йўлларнинг сунъий тўсиқлар билан тўсиб қўйилмаганлиги ўрганиб чиқилди.

Б.МАДАМИНОВ,
“Қамчиқ” МҚЁҚБ ЁҚО смена
бошлиғи, лейтенант.



МАВСУМГА ШАЙМИСИЗ!

Яшаш хонадонларида ёки корхона ташкилотларда ёнғин хавфсизлиги қоидаларига амал қилинса, ўзларининг ҳамда ўзгаларнинг ҳаётини хавф остига қўймайди. Арзимаган бепарволик ёки лоқайдлик инсонлар ҳаётининг даҳшатли яқун топишига олиб келади.

Ж.СИДИҚОВ,
Балиқчи тумани ФВ бўлими
бошлиғи, подполковник.
М.ДЖАЛОДИНОВ,
Асака тумани ФВ бўлими катта
инспектори, капитан.

Машғулот давомида бозор раҳбариятига ёнғин содир бўлганлиги бўйича хабар келиб тушди. Фуқаро муҳофазаси тузилмалари содир бўлган ёнғинларда инсонларни қутқариш ва уларни бартараф этиш ва фавқулодда вазиятлар хизмати келгунга қадар аварияларни бартараф этишлари учун ҳаракатлари текширилди. Бунда объект ишчилари томонидан зилзила

МАШҒУЛОТ

Пойтахтимизнинг Учтепа туман Ўрикзор бозорида содир бўлиши мумкин бўлган ёнғинларни самарали бартараф этиш ва бу борада ёнғин қутқарув бўлинмаларининг жанговар шайлигини ошириш бўйича амалий тактик машқ ўтказилди.

содир бўлгандан сўнг объектда қолиб кетган инсонларни қутқариш ишлари бажарилди. Барча ўтказилган тадбирларнинг якунида йўл қўйилган камчиликлар муҳокама

қилинди ва иштирок этган барча тузилмаларга баҳо берилган ҳолда бу борада билим ва кўникмалари мустақамланди.

Р.РОЗАБОЕВА,
ЎзЖОКУ талабаси.



БЕТАЛАФОТ ЎТСИН

Ғаллакорларимизнинг зарбдор меҳнати туфайли туманимиз далаларида дон ҳосили етиштирилмоқда. Асосий вазифа – бунёд этилган ҳосилни йиғиб-тегиб олишдан иборат. Бу эса ғаллакорларимизга катта масъулият юклайди. Донни етиштириш қанчалик муҳим бўлса, уни турли табиий офатлардан, жумладан, ёнғиндан сақлаш ҳам шунчалик муҳимдир. Шу боис, ёнғин хавфсизлиги хизмати ходимлари томонидан ғалла ўрим-йиғим мавсумини талафотсиз ўтказиш учун ёнғин хавфсизлиги қоидаларига тўлиқ риоя қилиш муҳим аҳамиятга эга эканлиги тушунтирилмоқда.

Х.АРТИКБОЕВ,
Тошкент тумани ФВ бўлими П ва НБ
бошлиғи, капитан.

Тошкент вилоятининг барча шаҳар ва туманлари ҳудудларида “Ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўйича” Долзарб 30 кун тадбирлари ташкил этилмоқда. Хусусан, Чирчиқ шаҳар электр таъминоти корхонасида фуқаро муҳофазаси бўйича тактик-махсус ўқув машқи ўтказилди. Корхонага қарашли электр энергиясини тақсимлаш подстанциясида шартли равишда чақнаш ва ёнғин чиқиш ҳолати юз берди.

БИЛИМЛАР СИНОВИ

Корхонанинг авария-қутқарув тузилмалари, жамоат тартибини сақлаш гуруҳи, санитар пости аъзолари томонидан электр таъминотини тўхтатиш, бошланғич даврида ривожланаётган ёнғин билан курашиш учун мўлжалланган ёнғин ўчириш воситаларидан фойдаланиш тартиби амалда кўрсатилди.

Шу вақтда шаҳар фавқулодда вазиятлар бўлими ёнғин ўчирувчилари, тиббиёт хизматининг тез ёрдам бригадаси, ички ишлар бўлими ва миллий гвардия кўриқчилари етиб келиб, ўзларининг махсус вазифаларини бажаришга киришдилар. Ходимларнинг ҳаёти ёки соғлиғига ёнғиннинг хавфи омиллари таҳдиди эҳтимоли мавжуд бўлган жойлардан хавфсиз ҳудудга, шу жумла-

дан, тегишли ҳимоя ва қутқарув техник воситаларидан фойдаланган ҳолда, жамоавий тарзда эвакуация қилиш жараёни ташкил этилди. Ёнғинни ўчириш, “жабрланган”ларни хавфсиз жойга олиб чиқиш, уларга биринчи ёрдам кўрсатиш ва шифохоналарга жўнатиш ишлари корхона фуқаро муҳофазаси тузилмаси аъзолари билан ҳамкорликда бажарилди.

Тактик-махсус ўқув машқида фаол иштирок этган ходимларга ташаккурномалар, фахрий ёрлиқлар ва эсдалик совғалари топширилди.

Ҳ.АГЛАЕВ,
Чирчиқ шаҳар Ҳаёт
фаолияти хавфсизлиги
ўқув маркази
катта ўқитувчиси.

ХАВФСИЗЛИК САРИ

“Долзарб 30 кун” тадбири даврида ёнғин хавфсизлигини таъминлашга жиддий аҳамият қаратилади. Ўта муҳим, тоифаланган ва иқтисодиёт объектлари, ёниш-портлаш хавфи юқори ҳамда фавқулодда вазият юз бериш даражаси юқори бўлган бошқа объектлар, шунингдек, одамлар кўп йиғиладиган жойларда ёнғин хавфсизлиги талабларига риоя қилиниши назоратга олинади.

2024/2025-ўқув йилида Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш бўйича тест синовлари ўтказиладиган объектларнинг ёнғинга қарши

ҳолати талаб даражасига келтирилади. Ўрмон ва уй-жой фондлари объектларининг ёнғин хавфсизлигини таъминлашга бўлган эътибор янада кучайтирилади.

Ёнғинлар, уларнинг оқибатлари, келиб чиқиш сабаблари ва содир бўлиш жабҳаларига доир кўп йиллик кўрсаткичларнинг таҳлиллари, куз-қиш мавсумида ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўйича профилактика тадбирлари кучайтирилган тарзда амалга оширилмаган тақдирда, ёнғинлар сони ва уларнинг оқибатлари бўйича кўрсаткичларнинг ўсиш тенденцияси кузатилишини кўрсатмоқда. Қайд этиб ўтилган таҳлиллардан келиб

чиқиб, айнан шу, яъни куз-қиш мавсумига тайёргарликни “Ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўйича долзарб 30 кун” тадбири давридан оқ ташкил этиб бориш орқали ижобий натижаларга эришиш мумкин.

О.ҚҮЛДОШЕВ,
Андижон вилояти
ФВБ бўлим бошлиғи
– вилоят ёнғин
назорати бўйича
бош инспекторининг
катта ёрдамчиси,
подполковник.
Ҳ.РАҲИМОВ,
Андижон вилояти
ФВБ ахборот хизмати
бошлиғи, капитан.

MUROJAATLARGA YECHIM

To'raqo'rg'on tumani FV bo'limi xodimlari hamda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tumandagi 2-sektor hududidagi "Sharq" MFY 1-umumta'lim maktabida rahbar, yoshlar va ularning oila a'zolari ishtirokida davra suhbatlari o'tkazildi.



Uchrashuvda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tayyorlash, Vatanga muhabbat, uni himoya qilish sharafli burch ekanligi, diniy va yot g'oyalar oqimiga kirib qolishning oldini olish bo'yicha o'rganish va tushuntirish ishlari olib borildi.

F.XO'JAMBERDIYEV,
To'raqo'rg'on tumani FV bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.
D.RUSTAMOVA,
bo'lim kichik inspektori, kichik serjant.

O'QUV MARKAZIDA

Hududiy hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazlari pedagoglari tomonidan mahallalarda ish bilan band bo'lmagan aholi o'rtasida soha yo'nalishidagi profilaktik ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan joriy yilning 6 oyi davomida ijobiy natijalarga erishildi.

Respublikamiz hududidagi 1130 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida "Ko'chki va o'pirilishlar xavfi yuzaga kelganda to'g'ri harakatlanish qoidalari", "Kuchli shamol vaqtida xavfsizlik choralarini ko'rish", "Sel-suv toshqini xavfi tug'ilganda aholining to'g'ri harakati", "Suvda baxtsiz hodisalarning oldini olish", "Oziq-ovqatdan zaharlanishning oldini olish", "Zilzila sodir bo'lganda aholining to'g'ri harakatlanish qoidalari", "Olov – tilsiz yov", yong'inlarning oldini olish va yong'inlar vaqtida aholining to'g'ri harakati", "Qrim-Kongo gemorrogik isitmasi kasalligining oldini olish" mavzularida tadbirlar tashkil etildi.

B.HAMIDOV,
FMI bo'lim boshlig'i, katta leytenant.

MAHALLA HUDUDIDA

G'uzor tumanining 7 ta mahalla hududidan oqib o'tuvchi o'ng va chap qirg'oq kanallarida 13 ta ro'yxatga olingan, ya'ni fuqarolarni cho'milish ta'qiqqlangan joylar aniqlangan.

Ushbu manzillarda mavsum boshidan hozirgacha qariyb 30 marotaba nazorat tadbirlari o'tkazilib, 600 nafardan ortiq turli yoshdagi fuqarolarga tushuntirish ishlari olib borilgan.

Bu borada Dehqonobod tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan ham fuqarolarga tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Jarayonda mutaxas-

salar tomonidan taqiqqlangan joylarda cho'milish noxush holatlarga sabab bo'lishi tushuntirilmoqda.

Sh. TOG'AYEV,
Dehqonobod tumani
FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, mayor.

J. NORQULOV,
G'uzor tumani FV
bo'limi inspektori,
leytenant.

Yurtimizda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida, joriy yilning 10-iyulidan 10-avgustiga qadar "Dolzarb 30 kun" tadbiri o'tkazilmoqda. Shu munosabat bilan tumanimizda ham davra suhbatlari o'tkazilib, ko'rgazmali chiqishlar tashkil qilinmoqda.

TIZIMLI ISHLAR

Ushbu tadbirlar davomida yong'inlarni keltirib chiqaruvchi holatlardan ehtiyot bo'lish, nosoz elektr moslamalaridan foydalanmaslikni targ'ib qiluvchi eslatmalar tarqatilib, tushuntirish ishlari olib borilmoqda hamda tadbir ishtirokchilariga birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartiblari o'rgatilmoqda. Olib borilgan profilaktik tadbirlar davomida obyektlarning

yong'inga qarshi holati tekshiruvdan o'tkazildi. Tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan obyektlarda yong'in-profilaktika ko'rikleri tashkil etildi. Mas'ullar hamda ishchi-xizmatchilar tomonidan yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatildi.

S.TURSUNOV,
Yangiheyot tumani
FV bo'limi boshlig'i.

TEZ VA SAMARALI

Yong'inga qarshi kurashning asosiy omillaridan biri – uni o'z vaqtida aniqlash va kuchayib ketmasidan oldin unga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishdir. Bunda aloqa vositalari va signalizatsiyalardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Respublikamizga xorijiy texnik vositalar muntazam kirib kelmoqda, neft va gaz sanoati, energetika, rangli metallurgiya, kommunikatsiya va aloqa tarmoqlari keskin rivojlanmoqda. Bu yong'in o'chirish texnik vositalariga bo'lgan talab va e'tibor o'z-o'zidan oshishiga olib keladigan omillardan biridir. Jumladan, xorijiy davlatlarda yong'inga qarshi kurashish, ularning oldini olish maqsadida, zamonaviy texnik vositalardan samarali va unumli foyda-

lanib kelinmoqda. Bu esa avtomatik yong'in xabarlovchilarining ham yangi avlodlari yoki turlarining yaratilishi va rivojlanishini taqozo etadi. Yong'inni tez va samarali o'chirish asosan, uning aniqlanish reaksiyasi tezligiga, yong'inni mahalliy lashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning tezlik bilan bajarilishiga bog'liqdir.

I.HAFIZOV,
Toshkent shahar
FVB kichik inspektori,
kichik serjant.

QOIDALAR

Yong'in-qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi tomonidan favqulodda vaziyat yoki yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish tartibi va qutqaruv ishlarini tashkil etish bo'yicha yong'in o'chirish amaliy-taktik mashq va odamlar ommaviy yig'iladigan maskanlarda yong'in-qutqaruv texnikalari va vositalari namoyish etilmoqda.



hamkorlikda aholi yashash xonadonlarida uyma-uy yurilib profilaktik tadbirlar o'tkazildi, fuqarolarga elektr va gaz uskunalaridan foydalanishda ularning sozligiga, sovitish kondisionerlariga, boshqa maishiy elektr jihozlaridan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishga e'tibor qaratilmoqda.

S.TULYAGANOV,
Toshkent shahar FVB OYXTTEB
kichik inspektori, kichik serjant.

ZARUR TADBIRLAR

Namangan viloyati FVBda "Giyohvandlikka qarshi kurashish barchamizning burchimiz" mavzusida ma'naviyat va ma'rifat mashg'uloti o'tkazildi.

Tadbir davomida boshqarma boshlig'i va otaliqqa olingan yoshlar bilan "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi tashkil etildi. Shuningdek, tizimda ko'p yillar xizmat qilgan harbiy xizmatchilarni nafaqaga kuzatish marosimi ham o'tkazildi. Yosh harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvonlar tantanali ravishda boshqarma boshlig'i tomonidan topshirildi.

Tadbir so'ngida fuqaroni suvdan qutqarib qolgan Norin tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi 11-yong'in-qutqaruv qismi smena boshlig'i Hasanboy Abdurahmanov boshqarma boshlig'ining tashakkurnomasi va pul mablag'i bilan taqdirlandi.

O.TOSHEMIROV,
Namangan viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari,
polkovnik.
I.MELIBOYEV,
FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.

OYLIKDA FAOL QATNASHAYLIK!

Buloqboshi tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan tumandagi Markaziy dehqon bozorida sotuvchi hamda xaridorlarga ishtirokida ovqatdan zaharlanish botulizm kasalligi bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Keyingi manzil "Shikor" nomli bolalar yozgi dam olish oromgohi bo'ldi. Bolalarga favqulodda vaziyatlarning oldini olish va unda to'g'ri harakat qilish bo'yicha ma'lumotlar aytili.

S.ZULUNOV,
Buloqboshi tumani FV bo'limi boshlig'i,
mayor.

QURILISHDA PROFILAKTIKA



Olmazor tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan Zarqaynar ko'chasida joylashgan "Wanli" MChJ qurilish tashkiloti tomonidan yangi quriladigan binoda ishlayotgan quruvchi hamda ishchi-xizmatchilar uchun targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Tadbir davomida yotoqxonalardagi yashash sharoitlari, isitish tizimlari va ovqatlanish joylari atrof-licha o'rganilib, qonun buzilish holatlari bo'yicha maskan ishchilariga va rahbariyatiga tushunchalar berildi.

S.ILHOMOV,
Olmazor tumani FVB P va NB inspektori,
katta leytenant.

Маърифат соати

ХАЛҚАРО МАЙДОНДАГИ ДИН БИЛАН БОҒЛИҚ ГЕОСИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР

Бугунги Янги Ўзбекистонда соғлом авлодни шакллантириш жараёнининг диний ва дунёвий тамойиллар уйғунлиги шароитида кечиши ижобий самара бермоқда. Шу ўринда қайд этиш жоизки, инсоният тарихининг ҳозирги босқичи ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, маънавий, маданий ҳаётнинг барча соҳаларида халқаро муносабатларнинг интеграциялашуви ва интенсивлашуви билан характерланади. Хусусан, алоқа воситаларининг ривожланиши, уларнинг компьютерлаштирилиши, электрон почта, интернет, космик телерадио алоқа тизимларининг техник-технологик воситалари кучайиб кетиши билан ахборот алмашув, бинобарин, ғоявий таъсир ўтказиш имкониятлари ҳам тобора кенгаймоқда.

Ўзбек халқига хос менталитет ҳам узоқ тарихий даврдаги ижтимоий-иқтисодий, сиёсий жараёнлар, табиий географик ўрнашув, ўзаро этномаданий алоқалар асосида қарор топган. Ўзбеклар тарих саҳнасидаги миллат сифатида ўз сафларига кўплаб туркий уруғларни бирлаштириш йўли билан пайдо бўлганлиги боис, бағрикенг ҳамда миллатчилик кайфиятидан йироқ халқ сифатида шаклланиган. Сўнги йилларда такомиллашган ташқи сиёсатга оид миллий қонунчилик ҳамда Ўзбекистон ҳукумати томонидан белгиланган қатъий сиёсий позицияга мувофиқ, яъни бошқа давлатларнинг ички ишларига аралашмаслик, чегараларнинг дахлсизлиги, куч ишлатмаслик, низоларни тинч йўл билан ҳал этиш қоидаларига амал қилиш, шунингдек ҳеч қандай ҳарбий-сиёсий блокларга қўшилмаслик, бошқа давлатларнинг ҳарбий базалари ва объектларининг мамлакат ҳудудида жойлашишига ва ҳарбий хизматчиларимизнинг хориждаги тинчлик ўрнатиш билан боғлиқ операциялар ва ҳарбий можароларда иштирок этишига йўл қўймаслик каби тамойилларга асосан, Ўзбекистоннинг ташқи сиёсати батамом янги мазмун-моҳиятга эга бўлди. Кўпқутбли олам, глобаллашув ва универсаллашув шароитида дунё давлатлари халқаро муносабатлар тизимида ўзига муносиб ўрин эгаллашга интиломоқда. Бу интилишлар турли сиёсий кучлар, айниқса, ривожланган мамлакатлар томонидан янги мустақил давлатларни ўз таъсир доираларида тугиб туриш, узоқ тарихга эга

диний омилдан фойдаланиб, геосиёсий мақсадларини амалга ошириш йўлидаги ошқора ва пинҳона ҳаракатларида намоён бўлмоқда. Шу сабабли миллат ўз олдига буюк мақсадлар қўётган бир пайтда, мамлакат ўтмиши, бугуни ва келажagini бирлаштирган кўприк – миллий ва диний қадриятлар асосидаги миллий тафаккурни шакллантириш тарихий заруриятдир.

Ўз даврида дунёнинг илғор давлатларидан кўп жиҳатдан ортда қолган Туркистон халқларини бўлажак фожиалардан огоҳ этиш, жамият ҳаётини инқилобий – зўрлик йўли билан эмас, балки маърифий йўл билан ижобий томонга ўзгартириш жадидчилик ҳаракатининг асосий мақсади эди. Жадидчилик ҳаракати ва жадидлар замонавий ўзбек жамияти ва давлатчилиги шаклланишига муносиб ҳисса қўшган, жадидларнинг илмий ва ижодий мероси бугунги авлод тарбиясида муҳим ўрин тутди ва уларда акс этган ғоялар долзарблигини йўқотган эмас. Дарҳақиқат, миллат маънавиятини ислоҳ этиш, одамларни маърифатли қилиш, оламга очиқ назар билан боқишга ўргатиш ва мудроқ тафаккурни уйғотишнинг энг асосий омили сифатида жадидлар матбуотнинг қадрини баланд кўтарди. Улар наздида матбуот – фикрлар тилмочи, миллат ва эл-юрт ривожини йўлида хизматчи, одамлар онг-у шуурининг қуёши, ҳар кимнинг виждонига тутилган кўзгу бўлмоғи лозим эди. Геосиёсатни тушуниш инсоният ва мамлакатларнинг ҳамжиҳатликда яшashi ва хавфсизлик борасидаги чораларни илмий усулда

режалаштиришга ёрдам беради. Мутахассислар ижтимоий-иқтисодий, экологик, демографик, ахборот, диний, маданий савиясига кўра фарқли мамлакатлар ўртасидаги алоқаларни тўғри таҳлил қилиши ҳамда мамлакатларнинг ўзаро муносабатларини холисона баҳолай олиши лозим.

Дунёнинг геосиёсий, ижтимоий-иқтисодий, ахборот-коммуникация соҳасидаги мураккаб мафкуравий жараёнларни ҳар томонлама илмий-амалий таҳлил қилиш ва баҳолашда “фикрга қарши фикр, ғояга қарши ғоя” билан курашиш талаби тобора ортмоқда. Бунда ислонинг бағрикенглик тамойиллари алоҳида аҳамият касб этади. Шу ўринда, Буюк ипак йўлида жойлашган Марказий ва Жанубий Осиё алоқалари асрлар давомида халқлар дўстлиги ва цивилизацияларга хизмат қилиб келганини ҳам эътироф этиш жоиздир. Қолаверса, минтақалар халқлари бир неча бор умумий давлатчилик тузилмалари таркибидан, шу билан бирга, сиёсий, иқтисодий ва гуманитар маконда ўзаро ҳамжиҳатликда умр кечирганлар.

Геосиёсий мақсадлар муайян давлатнинг ўз мавқеи ва таъсирини ўзга ҳудуд ва минтақаларда кучайтиришга қаратилган сиёсатни ифодалайди. Бугунги кунда халқаро майдонда турли шаклларда намоён бўлаётган бундай мақсадлар мафкуравий сиёсат билан қўшилиб бормоқда. Инсон қалби ва онги учун кураш бу жараённинг асосий йўналишларидан биридир. Минтақавий низолар терроризм ва зўравонлик, наркотики ва инсон ҳуқуқларини оммавий суръатда поймол этиш каби таҳдидларнинг доимий манбаига айланиб бормоқда. Хуллас, хавфсизликка солинаётган таҳдидлар сиёсий экстремизм, жумладан, диний руҳдаги экстремизмни, миллатчилик ва миллий маҳдудликни, этник, миллатлараро, маҳаллийчилик ва уруғ-аймоқчилик асосидаги зиддиятларни, коррупция ва жиноятчиликни, экология муаммоларини ўз ичига олади. Улар гарчи турлича намоён бўлса-да, ҳар биримизни ҳушёр ва огоҳ бўлишга ундайди.

Сир эмаски, бугунги геосиёсий жараёнлар фаоллашган, жаҳон миқёсида манфаатлар тўқнашуви кескинлашган даврда айрим носоғлом кучлар ислом динидан ўзининг тор геополитик мақсадларини қондириш йўлида фойдаланишга уринмоқда. Ўз ёвуз мақсадини амалга ошириш учун ислом дини ҳақидаги билими саёз, соддадил, ишонувчан ёшлардан ҳам усталлик билан фойдаланишмоқда. Шундай оқимларнинг ҳалокатли йўли асл ислом динининг табиатида хос эмаслигини Имом Мотуридий бобомиз асослаб берган бўлса, ундан кейин алломанин шогирдлари Абул Муъйин Насафий жамоатчиликлари изоҳлаб берган. Яна бир аллома Абулмутиъ Макхул Насафий эса ўзининг асарларида адашган оқимларнинг хатоларини кучли мантиқий далиллар билан исботлаган. Бундай асарлар бугунги кунда бузғунчи ақида эгаларининг ғоясига зарба берувчи асосли қўлланмалар бўлиб хизмат қилади. Геосиёсий, ташқи сиёсий позиция ишлаб чиқиш – ҳар қандай давлат учун жиддий, баъзан ўта оғир масала. Лекин халқ, жамият ва давлатнинг қарашлари аниқ-тиниқ бўлиши керак. Реал воқелик ва келажакни моделлаштириш миллатнинг умрини, ҳаётийлигини белгилаб беради. Шунинг учун мавҳумлик, мажҳуллик, нейтраллик доим ҳам иш беравермайди.

Жаҳон геосиёсатида халқларни маънавий-мафкуравий жиҳатдан тобе этишга интилиш ва бугунги кунда дунёни шундай асосда бўлиб олишга уринишлар давом этмоқда. Бунинг учун улар ҳозирги замон оммавий ахборот воситалари, уларнинг ютуқларидан ҳамда турли марказлар, айти пайтда ўзаро ҳамкорликка йўналтирилган ижтимоий, маданий, иқтисодий воситалардан фойдаланиш орқали дунёнинг турли ҳудудларида ўзларига мос мафкуравий муҳитни шакллантириш мақсадларини ҳам кўзламоқда. Ана шундай шароитда миллий ғояни чуқур эгаллаш орқалигина бундай мафкуравий майдонларда олиб борилаётган курашлар моҳиятини тўғри тушуниш ва олдини олиш мумкин. Маф-

куравий жараёнлар фикр ва ғоялар тизими сифатида инсон онига йўналтирилгани, ўзига хос мақсадлари борлиги билан характерланади. Улар кўплаб одамлар қалби ва онгини эгаллаб олиш орқали ўзига хос таъсир кўрсатиш майдонини яратди. Бу майдон ичида турли халқлар, инсонлар фаолияти мужжасамлашади. Маърифий ривожланиш ва дунё халқлари ривожини шуни тақозо этадики, геосиёсат ҳам маълум мақсадларни кўзлар экан, у фақат инсоният орзу қилиб келган тинчлик ва барқарорликка, мамлакатлар ва халқлар равиқига, эркин ва фаровон ҳаёт куриш ғоясига мос бўлиши керак. У Ватан равиқини, юрт тинчлигини, халқ фаровонлигини, ижтимоий ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик ғояларини ўзида мужжасам этиб, ҳозирги геосиёсий мақсадларнинг бош мезонига айланиб бориши лозим. У носоғлом мафкура ва ғояларни бошқа халқлар онига, қалбига синдириб, мафкуравий жиҳатдан дунёни бўлиб олишга эмас, ўзаро манфаатли ҳамкорликка, дунёвий муаммоларни ўзаро ҳамжиҳатлик билан ҳал этишга хизмат қилиши керак. XX аср охири ва XXI аср бошида дунё миқёсида рўй берган жиддий геосиёсий ўзгаришлар таъсирида геомафкуравий оқимлар пайдо бўлиб, ер юзининг турли минтақа ва мамлакатларига ўз таъсирини ўтказиб боради.

Ўзбекистон жамиятининг фундаментал ўзликларини аниқ. Биз туркий ва мусулмон дунёсининг муҳим қисмимиз. Ўзимизнинг сиёсий ва геосиёсий мустақиллигимизни бошқа туркий ва мусулмон халқларнинг стратегик манфаатлари билан ҳаммоҳанг, зиддиятларсиз тартибга солишимиз керак. Ва тизимга солинган ушбу позицияларни, Ўзбекистон халқининг узоқ муддатли манфаатларини баралла ёрита олишимиз, ҳимоя қила олишимиз керак. Дунёда геосиёсий зиддиятлар кўпаяди, кучаяди, ўткирлашади. Мана шу фонда, давлат ва жамият бирлигини, жипслигини ва айти пайтда жамият эрки ҳамда давлатнинг ҳуқуқийлиги ҳал қилувчи омил бўлади.

Анвар ҚОБИЛОВ
тайёрлади.

ДУНЁ АЖОЙИБОТЛАРИ



ИНСОН МИЯСИ

Мия – инсон танасидаги энг ноёб ва кам тадқиқ этилган органлардан бири. У бир пайтнинг ўзида кўплаб мураккаб функцияларни бажаришга қодир. Афсуски, вақт ўтган сари инсон танасининг бошқа органлари каби мия ҳам табиий равишда қарийди. "eLife" нашрининг хабар беришича, мия ўз "ёшлиги"ни, самарали ишлашини сақлаб туриши учун улкан саъй-ҳаракат ёки қиммат доришар шарт эмас. Бунинг учун мунтазам жисмоний машғулотлар билан шуғулланиш ва овқатланишга тўғри ёндашишнинг ўзи кифоя. Бен-Гурион университети мутахассислари бир ярим йилдан зиёд вақт давомида 300 нафар кишини кузатиб борган. Уларнинг 102 нафари семизликдан азият чеккан. Кузатув давомида олимлар "мия ёши"ни ҳисоблаб чиқишди. Қизиқарлиси, аксарият ҳолларда синовдан ўтаётганлар миясининг ёши уларнинг шахсий ҳужжатларидаги ёшдан кескин фарқ қилди. Тажрибадан шу маълум бўлдики, агар инсон жигарида ёғ концентрацияси камайса, мия ёшариши мумкинлиги аниқланди.

Табиийки, бунда параллел равишда инсон вазн йўқотади. Шу билан бирга, мия тузилмасида ажойиб ўзгаришлар рўй беради.

ТОЗА ХУДУД

Ер юзидаги энг тоза жой – Жанубий океан устидаги Антарктида яқинидаги фазо экани маълум бўлди. Тадқиқотчилар сунъий йўлдош маълумотлари ёрдамида атмосферани таҳлил қилишди. Улар Антарктида устидаги ҳаво саноат чиқиндилари йўқлиги сабабли тоза эканлигини аниқладилар.

Олимларнинг фикрича, Антарктида устидаги булут қоплами кўп миқдорда ёғингарчилик ҳосил қилувчи махсус ҳужайра тузилишига эга. Кучли ёмғир ва қор ёғиши ҳаводан ифлослантирувчи аэрозол зарраларини ювади, совуқ фронт ўтгандан кейин, айниқса, ҳаво тоза бўлади. Бундан ташқари, фитопланктон тоза ҳавони таъминлашга ўз ҳиссасини қўшади.



ОЙДА ЎСИМЛИК ЕТИШТИРИШ

Амеркалик астронавтлар "Артемида III" миссияси доирасида 2026 йилда Ой юзасига кресс салат, ўрдак ўти ва Брассиса рапа карамини экишни режалаштирмоқда.

Ойнинг қишлоқ хўжалиги флорасига таъсири (LEAF) лойиҳаси 2026 йилда Ойга юборилиши учун танланган учта тажрибадан биридир. Бу АҚШ космик агентлигининг Ойда биринчи марта ўсимликлар етиштириши бўлади ва келажакда космик миссияларни кенгайтириш учун калит бўлиши мумкин.

LEAF тажрибаси Колорадодаги "Space Lab Technologies" томонидан турли ўсимликларнинг космик шароитларга қандай бардош беришини текшириш учун ишлаб чиқилган. Астронавтлар кенгайтирилган «ўсиш камералари» сериясидан фойдаланадилар, бу технологиядан кресс салат, ўрдак ўти ва Брассиса рапа карамлари етиштирилади. Ушбу камералар ўсимликларни ортиқча радиация, қуёш нури ва вакуумдан ҳимоя қилади ва астронавтлар уларнинг ўсишини назорат қилади.

Кресс салати танланганини сабаби – унинг бутун генетик коди тўлиқ харитага туширилган. Бу шуни англатадики, олимлар ўсимлик ДНКсидаги ўзгаришлар радиация туфайли юзага келадими ёки йўқлигини аниқлашлари мумкин. Ўрдак ўтининг на илдизи, на пояси бор. Дунёдаги энг кичик ўсимлик ўзининг шарсимон шакли билан биргаликда космик шароитларга чидамли бўлиши мумкинлигига умид қилинмоқда. Жуда чидамли ва тез ўсадиган ўрдак ўти кўпинча дунё бўйлаб бутун ҳовуз ва кўллари тезда қамраб олади. Бироқ, космосда ўрдак ўти ноқулай эмас, балки кўп кислороднинг потенциал манбайи бўлган паст протеинли экинга айланган.



УЗОҚ УМР

Япония ва швециялик мутахассислардан иборат халқаро олимлар гуруҳи 100 ёшдан ошган одамларнинг қон таҳлилини ўрганиш орқали узоқ умр кўришнинг янги сабабини топишди.

Тадқиқот давомида олимлар 64-99 ёшли тиббий кўрикдан ўтган 44 минг швед маълумотларини таҳлил қилишди ва 35 йил кузатувни давом эттиришди. Улардан 1224 нафари 100 ёшгача яшаган ва уларнинг аксарияти аёллар бўлган. Тадқиқотчилар қондаги яллиғланиш, метаболизм, жигар ва буйрақлар фаолияти, шунингдек, тўйиб овқатланмаслик ва анемия билан боғлиқ бўлган ўн иккита биомаркерга эътибор қаратишди.

Натижалар, 100 ёшгача яшаганларда олтимиш ёшдан бошлаб глюкоза, креатинин ва пешоб кислотаси даражаси пастроқ бўлганини кўрсатди. Хусусан, юз ёшга кирганларнинг фақат айримларидагина глюкоза даражаси 6,5 дан юқори бўлган.



БИР ВУЛҚОН ТАРИХИ

Хунга-Хунга-Хапаи вулқонининг отилиши тарихдаги энг экстремал чақмоқлардан бирини келтириб чиқарди ва бу олимларга ноёб вулқон сирларини изоҳлашга имкон берди.

Тинч океанининг Жанубий қисмидан иккита кичик орол кўриниб турибди, уларнинг тўқ қоялари қирғоқларида оқётган сув мавсуми сувдан кескин фарқ қилади. Ороллар аслида Хунга-Тонга-Хунга Хапаи марказида жойлашган катта қозонга ўхшаш чуқурликнинг четидagi кичик чўққилардир.

Вулқон 2022 йил январь ойида шиддатли портлаб, 10 км³ тош, кул ва чўкиндиларни тўғридан-тўғри осмонга кўтариб тўлқин ҳосил қилди. Бу замонавий асбоблар томонидан қайд этилган энг катта атмосфера портлаши эди. Улкан вулқон булутли минтақани қоплаган ва шу қадар катта эдики, уни Халқаро космик станция бортида айланиб юрган астронавтлар кўришлари мумкин эди. Отилиш натижасида баландлиги 45 м.гача бўлган тўлқинли мегацунами ташқарига отилиб, Тонга оролларини вайрон қилди ва Россия, Гавайи, Перу ва Чилигача зарар етказди.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЮНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқланиши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун – 382

Газета "BUSINESS PRINT DESIGN"
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 7000 нуска